- moliyaviy ko'rsatkichlarni yig'ish va tizimlashtirish. NOTMlarning 2025-yil moliyaviy hisobotlari asosida umumiy aktivlar, majburiyatlar, o'z mablag'lari, tushum, xarajat va sof foyda ko'rsatkichlari aniqlangan.
- moliyaviy barqarorlikni baholash. Har bir NOTM uchun moliyaviy barqarorlik koeffitsienti hisoblangan, bu ko'rsatkich kapital tuzilmasining barqarorligini va majburiyatlarni qoplash imkoniyatini o'lchashga xizmat qilgan.
- iqtisodiy samaradorlik tahlili. Aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), soliq yuklamasi va moliyaviy samaradorlik indeksi hisoblangan. Bu ko'rsatkichlar NOTMlarning moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi.
- taqqoslash va xulosalash. Moliyaviy ko'rsatkichlar muassasalar o'rtasida solishtirilgan va farqlar tahlil qilingan. Shu asosda ichki audit natijalarini boshqaruv qarorlariga integratsiya qilishning moslashuvchan mexanizmlari aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nodavlat OTMlarda moliyaviy holatini kompleks baholash va ularning iqtisodiy faoliyati samaradorligini aniqlash zamonaviy iqtisodiy tahlilning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida amalga oshiriladigan tahlillar korxonalarning moliyaviy barqarorligi, rentabellik darajasi,

kapital tuzilmasi hamda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, nodavlat OTMlarning moliyaviy ko'rsatkichlarini tizimli ravishda o'rganish iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim analitik asosdir (1-jadval).

1-jadval. Nodavlat OTMlarida 2025-yil bo'yicha obyektlarning moliyaviy holati tahlili¹

№	NOTM nomi	Umumiy aktivlar (so'm)	Majburiyatlar (so'm)	O'z mablag'lari (so'm)	Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti
1	Qo'qon universiteti	28 970 332	11 540 221	17 430 111	0.60
2	Toshkent amaliy fanlar universiteti	29 115 604	11 935 470	17 180 134	0.59
3	Oriental universiteti	25 774 206	10 112 853	15 661 353	0.61
4	TMC institute	30 682 907	12 114 620	18 568 287	0.61
5	Iqtisodiyot va pedagogika universiteti	27 884 310	10 927 640	16 956 670	0.61
6	Alfraganus universiteti	26 907 115	10 580 104	16 327 011	0.61

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, nodavlat oliy ta'lim muassasalari (NOTM)ning umumiy aktivlari 25,77 mlrd so'mdan 30,68 mlrd so'mgacha farq qiladi. Eng yuqori aktivlar TMC institutida (30,68 mlrd so'm) va eng past aktivlar Oriental universitetida (25,77 mlrd so'm) shakllangan.

Majburiyatlar hajmi bo'yicha eng katta ko'rsatkich TMC institutida (12,11 mlrd so'm) va eng kichik ko'rsatkich Oriental universitetida (10,11 mlrd so'm) kuzatiladi. O'z mablag'lari esa NOTMlar faoliyatining barqarorligini ko'rsatadigan asosiy ko'rsatkich bo'lib, jadvaldan ko'rinib turibdiki, u 15,66 mlrd so'mdan 18,57 mlrd so'mgacha shakllangan. Eng yuqori o'z mablag'lari TMC institutida (18,57 mlrd so'm) va eng past Oriental universitetida (15,66 mlrd so'm) qayd etilgan.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti NOTMlarning kapital tuzilmasi va qarz majburiyatlarini qoplash darajasini ifodalaydi. Jadval ko'rsatkichlariga qaraganda, barqarorlik koeffitsienti barcha muassasalarda 0,59–0,61 oralig'ida bo'lib, bu ularning moliyaviy tuzilmasi nisbatan barqaror ekanligini tasdiqlaydi. Toshkent amaliy fanlar universitetida bu koeffitsient 0,59 bo'lib, boshqa muassasalarga nisbatan biroz pastroq, ya'ni majburiyatlar ulushi nisbatan yuqoriroq. Boshqa barcha muassasalarda koeffitsient 0,60–0,61 darajasida bo'lib, ularning moliyaviy mustaqilligi yetarli ekanligini ko'rsatadi.

1-jadvaldan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- TMC instituti umumiy aktivlar va o'z mablag'lari bo'yicha yetakchi hisoblanadi, bu uning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish salohiyatining yuqoriligini bildiradi.
- Oriental universiteti aktivlar va o'z mablag'lari bo'yicha eng past ko'rsatkichlarni qayd etgan bo'lib, moliyaviy resurslardan foydalanishni yaxshilash zaruriyatini ko'rsatadi.
- Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti barcha muassasalarda 0,6 atrofida bo'lib, NOTMlarning kapital tuzilmasi va moliyaviy mustaqilligi nisbatan barqaror ekanligini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval. Nodavlat OTMlarida 2025-yil bo'yicha moliyaviy natijalari tahlili²

№	NOTM nomi	Yillik tushum (so'm)	Xarajatlar (so'm)	Sof foyda (so'm)	Rentabellik darajasi (%)
1	Qo'qon universiteti	41 820 500	36 940 200	4 880 300	11.7
2	Toshkent amaliy fanlar universiteti	42 905 600	37 560 820	5 344 780	12.4
3	Oriental universiteti	38 206 800	33 905 410	4 301 390	11.3
4	TMC instituti	44 310 700	38 620 450	5 690 250	12.8
5	Iqtisodiyot va pedagogika universiteti	40 774 900	35 660 300	5 114 600	12.5
6	Alfraganus universiteti	39 915 200	35 020 550	4 894 650	12.2

1 Manba: muallif ishlanmasi

2 Manba: muallif ishlanmasi



2025-yil bo'yicha Qo'qon universiteti bo'yicha moliyaviy natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu obyektning yillik tushumi 41,82 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, ishlab chiqarish va operatsion xarajatlar 36,94 mlrd so'mni tashkil etadi. Bunda sof foyda 4,88 mlrd so'm darajasida shakllangan. Rentabellik darajasi 11,7 foiz bo'lib, bu ko'rsatkich obyektning iqtisodiy faoliyati nisbatan samarali tashkil etilganligini ko'rsatadi.

Toshkent amaliy fanlar universiteti bo'yicha moliyaviy natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, uning tushumi 42,90 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, xarajatlar hajmi 37,56 mlrd so'mni tashkil etadi. Unga ko'ra, sof foyda 5,34 mlrd so'm miqdorida shakllangan. Rentabellik darajasi 12,4 foizni tashkil etib, ushbu obyektning iqtisodiy samaradorligi o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi.

Oriental universiteti bo'yicha moliyaviy natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, uning tushumi 38,20 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, xarajatlar 33,90 mlrd so'm darajasida shakllangan. Shunda sof foyda 4,30 mlrd so'mni tashkil etgan. Rentabellik darajasi 11,3 foiz bo'lib, bu ko'rsatkich obyektning iqtisodiy samaradorligi boshqa obyektlarga nisbatan biroz pastroq ekanligini ko'rsatadi.

TMC instituti bo'yicha moliyaviy natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu obyektning tushumi 44,31 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, xarajatlar hajmi 38,62 mlrd so'mni tashkil etadi. Shunga ko'ra, sof foyda 5,69 mlrd so'm miqdorida shakllangan. Rentabellik darajasi 12,8 foizni tashkil etib, bu obyektning iqtisodiy faoliyati boshqa obyektlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti bo'yicha moliyaviy natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, uning tushumi 40,77 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, xarajatlar hajmi 35,66 mlrd so'm darajasida shakllangan. Natijada sof foyda 5,11 mlrd so'mni tashkil etgan. Rentabellik darajasi 12,5 foizni tashkil etib, bu obyektning moliyaviy natijalari barqaror ekanligini ko'rsatadi.

Alfraganus universiteti bo'yicha moliyaviy natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, uning tushumi 39,91 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, xarajatlar hajmi 35,02 mlrd so'm darajasida shakllangan. Shunda sof foyda 4,89 mlrd so'm miqdorida shakllangan. Rentabellik darajasi 12,2 foizni tashkil etib, obyektning iqtisodiy samaradorligi o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. Nodavlat OTMlarida 2025-yil bo'yicha moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil³

№	NOTM nomi	Aktivlar rentabelligi (%)	Kapital rentabelligi (%)	Soliq yuklamasi (%)	Moliyaviy samaradorlik indeksi
1	Qo'qon universiteti	16.8	28.0	2.7	0.68
2	Toshkent amaliy fanlar universiteti	18.3	31.1	2.8	0.71
3	Oriental universiteti	16.7	27.5	3.0	0.66
4	TMC instituti	18.5	30.6	2.6	0.72
5	Iqtisodiyot va pedagogika universiteti	18.3	30.1	2.7	0.70
6	Alfraganus universiteti	18.2	30.0	2.9	0.69

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, NOTMlar o'rtasida aktivlar rentabelligi (ROA) 16,7% dan 18,5% gacha farq qiladi. Eng yuqori aktivlar rentabelligi TMC institutida (18,5%) kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Oriental universitetida (16,7%) qayd etilgan. Bu farq muassasalarning aktivlardan foydalanganlik samaradorligi darajasidagi sezilarli tafovutni ko'rsatadi.

Kapital rentabelligi (ROE) bo'yicha esa Toshkent amaliy fanlar universiteti yetakchilik qiladi — 31,1%. Bu ko'rsatkich TMC instituti (30,6%) va Iqtisodiyot va pedagogika universiteti (30,1%) uchun ham yuqori darajada bo'lib, ularning kapital resurslaridan samarali foydalanayotganligini bildiradi. Oriental universiteti kapital rentabelligi bo'yicha eng past ko'rsatkich — 27,5% bilan ajralib turadi.

Soliq yuklamasi ko'rsatkichlari 2,6% dan 3,0% gacha o'zgarib turadi. Eng past soliq yuklamasi TMC institutida (2,6%), eng yuqori esa Oriental universitetida (3,0%) kuzatiladi. Soliq yuklamasi nisbatan past bo'lsa, muassasa sof foydasidan ko'proq qismi o'z rivojlanishiga yo'naltirilishi mumkin, bu uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Moliyaviy samaradorlik indeksi muassasalarning moliyaviy resurslardan foydalanish va sof foyda hosil qilish samaradorligini umumiy baholaydi. TMC instituti indeksi eng yuqori — 0,72, bu uning iqtisodiy faoliyati yuqori darajada samarali ekanligini ko'rsatadi. Toshkent amaliy fanlar universiteti (0,71) va Iqtisodiyot va pedagogika universiteti (0,70) ham yuqori samaradorlikka ega. Oriental universiteti indeksi esa 0,66 bo'lib, bu uning moliyaviy samaradorligini yaxshilash zaruratini ko'rsatadi.

3 Manba: muallif ishlanmasi

3-jadval ma'lumotlaridan quyidagi xulosa va tavsiyalarni aytishimiz mumkin: TMC instituti va Toshkent amaliy fanlar universiteti moliyaviy resurslardan eng samarali foydalanayotgan NOTMlar hisoblanadi. Bu ularning aktivlar va kapital rentabelligi yuqori, soliq yuklamasi past va moliyaviy samaradorlik indeksi eng yuqori ekanligidan kelib chiqadi.

Oriental universiteti moliyaviy samaradorlik bo'yicha eng past ko'rsatkichlarni qayd etgan. Bu uning aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va investitsiya loyihalarini puxta baholash zarurligini bildiradi.

Soliq yuklamasi past bo'lgan muassasalarda sof foydaning katta qismi rivojlanishga yo'naltirilishi mumkin, bu esa moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Audit va moliyaviy nazorat tavsiyalari NOTMlarning moliyaviy samaradorlik darajasiga moslashtirilishi lozim: yuqori samaradorlikka ega muassasalarda resurslardan foydalanishning davomiyligini ta'minlash, past samaradorlikdagi muassasalarda esa xarajatlar samaradorligini oshirish va kapitalni optimal boshqarish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Umumiy jihatdan 1-jadval ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan tahlillar boshqaruv nuqtayi nazaridan muhim bir xulosani shakllantiradi: nodavlat oliy ta'lim muassasalari moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, xususan, aktivlar hajmi, kapital tuzilmasi, tushum va foyda darajasi bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi. Birinchi jadvalda aks ettirilgan moliyaviy holat ko'rsatkichlari ayrim muassasalarda aktivlar hajmi nisbatan yuqori ekanligini, boshqalarida esa kapital tuzilmasida qarz majburiyatlari ulushi nisbatan ko'proq ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchi va uchinchi jadvallarda keltirilgan moliyaviy natijalar hamda samaradorlik ko'rsatkichlari esa muassasalarning iqtisodiy faoliyati rentabellik darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligi bo'yicha ham bir xil emasligini tasdiqlaydi.

Shu sababli ichki audit natijalarini boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish jarayonida yagona yoki universal boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, har bir muassasaning moliyaviy holati, iqtisodiy faoliyati hajmi va risk darajasi inobatga olingan holda moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini qo'llash zarur. Jadval tahlillari shuni ko'rsatadiki, ayrim muassasalarda aktivlar hajmining nisbatan yuqori bo'lishi kapital qo'yilmalar, infratuzilma obyektlari va axborot texnologiyalari tizimlariga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushining ortib borayotganini bildiradi. Bunday sharoitda audit tavsiyalari kapital xarajatlar, shartnomalar tuzilishi va ularning bajarilishini nazorat qilish hamda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash bilan bog'liq boshqaruv qarorlariga majburiy nazorat bosqichi sifatida kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Boshqa tomondan, 2-jadvalda aks ettirilgan moliyaviy natijalar tahlili ayrim muassasalarda tushum va sof foyda hajmi nisbatan yuqori shakllanganini ko'rsatadi. Bu holat bunday muassasalarda moliyaviy oqimlar hajmi kengayib borayotganini anglatadi. Shunga ko'ra audit tavsiyalari kontrakt tushumlarini tan olish tartibi, grant va shartnoma majburiyatlarining bajarilishi, turli imtiyoz va chegirmalar siyosati hamda xarajatlar tasnifining to'g'riligini baholash jarayonlari bilan uzviy bog'lanishi lozim. Bunday yondashuv moliyaviy siyosatni takomillashtirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3-jadvalda keltirilgan moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari ham muassasalar o'rtasida aktivlar rentabelligi va kapital rentabelligi darajalari bo'yicha farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa audit natijalarini boshqaruv tizimiga integratsiya qilishda risk darajasiga asoslangan yondashuvni qo'llash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ya'ni moliyaviy samaradorligi yuqori bo'lgan muassasalarda asosiy e'tibor resurslardan foydalanish samaradorligini saqlab qolish va risklarni minimallashtirishga qaratilishi kerak bo'lsa, samaradorlik darajasi nisbatan past bo'lgan muassasalarda esa xarajatlar samaradorligini oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda boshqaruv qarorlarini optimallashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, nodavlat oliy ta'lim muassasalari (NOTM)ning moliyaviy holati va iqtisodiy samaradorligi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. 2025-yil bo'yicha o'tkazilgan moliyaviy tahlil NOTMlarning aktivlar hajmi, majburiyatlar ulushi, o'z mablag'lari, tushum, xarajatlar va sof foyda ko'rsatkichlarini kompleks baholash imkonini berdi.

Jadval ko'rsatkichlariga ko'ra, NOTMlarning umumiy aktivlari 25,77 mlrd so'mdan 30,68 mlrd so'mgacha o'zgarib, eng yuqori aktivlar TMC institutida, eng past aktivlar esa Oriental universitetida shakllangan. Majburiyatlar hajmi bo'yicha ham farqlar mavjud bo'lib, TMC institutida eng yuqori (12,11 mlrd so'm), Oriental universitetida eng past (10,11 mlrd so'm) ko'rsatkich qayd etilgan. O'z mablag'lari esa NOTMlarning moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, u 15,66 mlrd so'mdan 18,57 mlrd so'mgacha shakllangan. Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti 0,59–0,61 oralig'ida bo'lib, barcha muassasalarda kapital tuzilmasi nisbatan barqaror ekanligini tasdiqlaydi.

Moliyaviy natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, NOTMlarning yillik tushumi 38,20 mlrd so'mdan 44,31 mlrd so'mgacha farq qiladi. Sof foyda hajmi esa 4,30 mlrd so'mdan 5,69 mlrd so'mgacha o'zgarib, rentabellik darajasi 11,3–12,8% oralig'ida shakllangan. Eng yuqori rentabellik TMC institutida, eng past rentabellik Oriental



universitetida kuzatilgan. Bu farq muassasalarning iqtisodiy faoliyat samaradorligi va moliyaviy resurslardan foydalanish darajasidagi tafovutni ko'rsatadi.

Moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili natijalari ham muassasalarning aktivlar va kapital rentabelligi darajalari bo'yicha farqlanishini tasdiqlaydi. Aktivlar rentabelligi 16,7–18,5% oralig'ida o'zgarib, kapital rentabelligi 27,5–31,1% darajasida shakllangan. Soliq yuklamasi ko'rsatkichlari esa 2,6–3,0% oralig'ida bo'lib, past soliq yuklamasi muassasaga sof foydani rivojlanish va investitsiyalarga yo'naltirish imkonini beradi. Moliyaviy samaradorlik indeksi eng yuqori ko'rsatkich (0,72) TMC institutida, eng past ko'rsatkich (0,66) Oriental universitetida qayd etilgan.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki:

TMC instituti va Toshkent amaliy fanlar universiteti moliyaviy resurslardan eng samarali foydalanayotgan NOTMLar hisoblanadi. Ularning aktivlar va kapital rentabelligi yuqori, soliq yuklamasi past va moliyaviy samaradorlik indeksi eng yuqori darajada.

Oriental universiteti moliyaviy samaradorlik bo'yicha eng past ko'rsatkichlarni qayd etgan bo'lib, bu uning aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va investitsiya loyihalarini puxta baholash zaruratini bildiradi. Moliyaviy barqarorlik va samaradorlikni oshirish uchun har bir muassasa uchun moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini qo'llash, audit tavsiyalarini moliyaviy siyosat va kapital xarajatlariga integratsiya qilish zarur.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, NOTMLarning moliyaviy holatini kompleks baholash va iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish nafaqat ularning hozirgi holatini baholash, balki boshqaruv qarorlarini optimallashtirish va moliyaviy risklarni minimallashtirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nodavlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy holatini kompleks baholash ularning iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy barqarorligi va boshqaruv resurslaridan foydalanish darajasini aniqlashda muhim analitik vosita hisoblanadi. 2025-yil moliyaviy hisobotlari asosida olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, muassasalar o'rtasida umumiy aktivlar, majburiyatlar, o'z mablag'lari, yillik tushum, xarajatlar, sof foyda hamda rentabellik ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, moliyaviy samaradorlik indeksi, aktivlar rentabelligi va kapital rentabelligi ko'rsatkichlari ayrim muassasalarda resurslardan foydalanish nisbatan samarali tashkil etilganini, boshqa ayrim muassasalarda esa ichki moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini chuqur takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, TMC instituti va Toshkent amaliy fanlar universiteti moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi bo'yicha yetakchi subyektlar sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, Oriental universitetida moliyaviy natijalar va samaradorlik ko'rsatkichlari nisbatan past darajada shakllangani ushbu muassasada xarajatlar tarkibini qayta ko'rib chiqish, aktivlardan foydalanish unumdorligini oshirish va investitsion qarorlarni iqtisodiy jihatdan puxta asoslash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik koeffitsientining barcha muassasalarda 0,59–0,61 oralig'ida shakllangani nodavlat oliy ta'lim muassasalarida kapital tuzilmasining umumiy jihatdan barqaror ekanini tasdiqlaydi, biroq bu holat ularning barchasida bir xil boshqaruv samaradorligi mavjud degan xulosani bermaydi.

Tahlil natijalari asosida shunday ilmiy xulosaga kelish mumkinki, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy holatni baholash faqat mutlaq moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlash bilan cheklanmasdan, balki ularning boshqaruv qarorlariga ta'sir etuvchi rentabellik, barqarorlik, soliq yuklamasi va moliyaviy samaradorlik indeksleri bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi lozim. Chunki aynan kompleks baholash yondashuvi moliyaviy resurslardan foydalanish sifati, kapital tuzilmasining maqbulligi, sof foydani shakllantirish manbalari hamda risklarning boshqaruv tizimiga ta'sirini aniqroq ochib beradi. Tadqiqotda ichki audit natijalarini boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish bo'yicha ilgari surilgan yondashuv ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u NOTMLar faoliyatida yagona universal modeldan ko'ra, muassasaning moliyaviy hajmi, risk darajasi va iqtisodiy faoliyat ko'lamiga moslashgan differensial boshqaruv mexanizmlarini qo'llash maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatadi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, birinchi navbatda nodavlat oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy holat va iqtisodiy samaradorlikni baholashning ichki institutsional metodikasini ishlab chiqish zarur.

Birinchiidan, ushbu metodikada aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi, moliyaviy barqarorlik koeffitsienti, xarajatlar qamrovi, sof foyda marjasi va moliyaviy samaradorlik indeksi kabi ko'rsatkichlar yagona tizimga keltirilishi lozim.

Ikkinchiidan, ichki audit xizmatining tavsiyalari moliyaviy hisobot tahlili bilan integratsiyalashgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning majburiy axborot manbalaridan biriga aylantirilishi kerak. Bu, ayniqsa, kapital qo'yilmalar, infratuzilma xarajatlari, grant mablag'lari, kontrakt tushumlari va imtiyozlar siyosatini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Uchinchidan, moliyaviy samaradorligi past bo'lgan muassasalarda xarajatlar tuzilmasini funksional kesimda qayta tahlil qilish, samarasiz sarf-xarajatlarni aniqlash va investitsion loyihalarni tanlashda rentabellik mezonlarini qo'llash zarur.

To'rtinchidan, moliyaviy samaradorligi yuqori bo'lgan muassasalarda erishilgan natijalarni saqlab qolish uchun resurslardan foydalanish ustidan preventiv nazoratni kuchaytirish, foydani reinvestitsiya qilish siyosatini takomillashtirish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik strategiyasini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Beshinchidan, muassasalar o'rtasidagi moliyaviy tafovutlarni kamaytirish uchun boshqaruv hisobi, ichki nazorat va audit natijalaridan foydalanishga asoslangan moslashuvchan boshqaruv modeli joriy etilishi lozim.

Umuman olganda, nodavlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy holatini kompleks baholash va iqtisodiy samaradorligini chuqur tahlil qilish ularning nafaqat joriy moliyaviy natijalarini aniqlash, balki strategik rivojlanish imkoniyatlarini baholash, moliyaviy risklarni kamaytirish, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish hamda ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli NOTMLar faoliyatida moliyaviy tahlil, ichki audit va boshqaruv qarorlarini o'zaro uyg'unlashtirgan yaxlit mexanizmni shakllantirish istiqboldagi barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusalomova N.B. Ichki audit asoslari. – T.: Iqtisod-Moliya, 2017. - 224 b.
2. Семенова Т.В. Финансовый менеджмент. – М.: Юрайт, 2019. - 368 с.
3. Horngren, Charles T., Sundem, Gary L., Stratton, Walter O. - Introduction to Management Accounting. Pearson, 2017.
4. Brigham, Eugene F., Houston, Joel F. - Fundamentals of Financial Management. Cengage Learning, 2020.
5. Romney, Marshall B., Steinbart, Paul J. - Accounting Information Systems. Pearson, 2021.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100